

Bayram muborak bo'lsin!

Ustoz – ulkan salohiyat egasi! Uning qilgan mehnatlari evaziga qo'lida tarbiya topuvchi yosh avlod bilimli va savodxon bo'lib voyaga yetadi. Kimdir qaysidir kasbni egallashida mana shu ustozining o'g'itlari, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari asosida kata yo'l ostonasiga qadam qo'yadi.

Ustoz o'zidan keyin har bir insonning hayotida sezilmas, ammo juda muhim iz qoldiradi. shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. Mashhur insonlarning aynan yuqori cho'qqilarga erishishlari ham ustozlarning beqiyos zahmatidir. Mazkur kasb azal-azaldan jamiyat uchun eng muhim hamda kerakli qadimiy kasb hisoblanadi.

Vladimir Dal o'zining izohli lug'atida yozadi: “Bilim xohish istakni talab etadi”. Avvalambor, o'qituvchi o'z kasbini sevishi, o'quvchilarning har biriga mehr qo'yishi, bor bilimu korlarini hech qizg'anmay bolalarga o'rgatishi kerak. Kasbga muhabbat birinchi o'rinda turishi lozim. Shundagina o'qituvchi degan oliy maqomga ega bo'ladi.

O'qituvchi zimmasiga hayot talablariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.

Quyosh o'z nuri bilan butun tabiat, borliqni jonlantirgani kabi, o'qituvchi, murabbiy ham bor mahorati, ilmi bilan o'quvchi-yoshlar qalbini ilm ziyosi bilan to'ldirishga axd qilgan buyuk kasb egasidir.

Zero, ulug' mutafakkir Abdurahmon Jomiy quyidagi satrlarni bejiz yozmagan:
Jahonda bo'lmasa muallim agar,

Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar.

Ustoz va murabbiylarning mashaqqatli mehnatlarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston respublikasida 1-oktabr “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” deb e'lon qilingan. Ushbu bayramni nafaqat ustozlar, balki o'quvchilar, talabalar ko'tarinku ruhda nishonlaymiz. Bu tom ma'noda bizga bilim sirlarini o'rgatayotgan mazkur kasb egalariga bo'lgan cheksiz hurmatimizning ifodasidir.

Biz texnika asrida yashamoqdamiz. Axborot texnologiyalari tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, hoxlaymizmi yo'qmi, ustozlarning kerakli maslahatlariga muhtoj bo'lamiz. Ular esa o'z bilim va ko'nikmalarini biz yosh avlod ongiga singdirishda bor kuch va mahoratlarini ishga solib, fidoyilik ko'rsatmoqdalar. Buning uchun ularga minnatdorchilik bildiramiz.

Universitetimiz barcha Professor-o'qituvchilarini kasb bayramlarini bilan chin dildan muborakbod etamiz.

“Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy
Quyoshku falakda kezib yuripti
Umrimiz boqiydir umrimiz boqiy”

O'ylar ummoniga g'arq bo'lib tursam,
Ustoz G'ulom misrasi yodimga tushdi.
Qo'linga qalamni olgan zahotim
So'zlar injudek terilib tushdi.

Yana o'yga toldim umr haqida
Bu keng dunyoda eng buyugi kim?
Deydilar ona-bu eng ulug' zotdir,
Undan so'ng turar *Aziz Muallim!*

Muallimdir umri boqiy zot asli
O'zi o'lsa-da, so'zi o'lmaydi.
Ko'rinmay qolsa-da, diydori, vasli,
Shogirdlar qalbidan yodi o'chmaydi.

To'xtaxonova Gulnozaxon

II bosqich “Sanoat qurilishi va arxitekturasi” fakulteti talabasi